

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-iyunida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 7 861,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga o'sdi.


2019 yil yanvar-iyun yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4 191,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga oshdi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

	mlrd.so'm		2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan % da
	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun	
<b>I. YaHM</b>	<b>6 233,9</b>	<b>7 861,8</b>	<b>107,2</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	5 661,9	7 061,9	107,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	572,0	799,9	108,3
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>5 661,9</b>	<b>7 061,9</b>	<b>107,1</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 022,8	1 184,8	105,4
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 570,0</b>	<b>3 180,6</b>	<b>108,6</b>
sanoat	2 097,0	2 343,2	100,5
qurilish	473,0	837,4	144,6
<b>Xizmatlar</b>	<b>2 069,1</b>	<b>2 696,5</b>	<b>106,1</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	351,9	410,6	104,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	421,9	482,1	112,5
boshqa xizmat tarmoqlari	1 295,3	1 803,8	104,6

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining o'sish sur'ati – 105,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi 16,8 %), sanoat (qurilishni qo'shgan holda) – 108,6 % (45,1 %) hamda xizmatlar tarmog'i – 106,1 % (38,1 %).

### 2019 yil yanvar-iyunda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




### Iqtisodiy faoliyat turlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 89,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlarning esa 10,2 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 1,3 % punktga (YaHM tarkibidagi ulushi 16,8 %), sanoat (qurilishni qo`shgan holda) tarmog`ining ulushi 0,3 % (45,1 %) punktga kamaydi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2019 yil yanvar-iyunda 38,1 % ni tashkil etdi va 2018 yil mos davri (36,5 %) bilan taqqoslanganda 1,6 % punktga oshdi.

### Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qo`shilgan qiymati
- Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi
- Sanoat (qurilishni ko`shgan holda)
- Xizmatlar




Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 5,8 % ni (2018 yil yanvar-iyun – 6,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,8 % ni (7,5 %), xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 25,5 % ni (22,8 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)**

**2018 yil  
yanvar-iyun**



**2019 yil  
yanvar-iyun**



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig`ma  
axborot-tahliliy ishlar bo`limi**

**Tel.: (0-361) 222-74-58;**

**(0-371) 230-82-03**